

YUSUF VA ZULAYHO MAVZUSI AKS ETGAN ASARLAR QIYOSIY TAHLILI

Xayrullayeva Zulxumor*Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti**Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti**O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi***Suyunova Dilbar***Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Sharq va jahon adabiyotida keng tarqalgan “Yusuf va Zulayho” syujetining turli davr va mualliflar ijodida aks etishi qiyosiy tahlil qilinadi. Xususan, Qur‘ondagi Yusuf payg‘ambar qissasi asosida yaratilgan Yusuf va Zulayho (muallifi Abdurahmon Jomiy) hamda Yusuf va Zulayho (muallifi Alisher Navoiy) asarlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ushbu asarlarda ishq, sabr, sadoqat, axloqiy poklik kabi g‘oyalar qanday badiiy talqin etilgani, obrazlar tizimi va syujet rivojidagi o‘xshashlik hamda farqlar aniqlanadi. Shuningdek, har bir muallifning o‘ziga xos uslubi, davr ruhiyati va estetik qarashlari asosida mazkur syujetning qayta talqin qilinishi yoritiladi. Qiyosiy tahlil natijasida “Yusuf va Zulayho” mavzusi insoniy fazilatlarini ulug‘lashda muhim badiiy vosita sifatida xizmat qilgani xulosa qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Yusuf va Zulayho, qiyosiy tahlil, Sharq adabiyoti, ishq timsoli, sabr va sadoqat, badiiy talqin, obrazlar tizimi.*

Annotation: *This article provides a comparative analysis of the “Yusuf and Zulaykha” сюжет, which is widely распространён in Eastern and world literature, as interpreted in the works of different periods and authors. In particular, the study examines the poems “Yusuf and Zulaykha” by Abdurahmon Jomiy and Alisher Navoiy, both based on the story of Prophet Yusuf in the Qur‘on. The research analyzes how themes such as love, patience, devotion, and moral purity are artistically interpreted, as well as similarities and differences in the system of characters and plot development. It also highlights how each author reinterprets the сюжет according to their individual style, the spirit of their time, and aesthetic views. The comparative analysis concludes that the “Yusuf and Zulaykha” theme serves as an important artistic means of glorifying human virtues.*

Keywords: *Yusuf and Zulaykha, comparative analysis, Eastern literature, symbol of love, patience and devotion, artistic interpretation, character system.*

Аннотация: *В данной статье проводится сравнительный анализ сюжета «Юсуф и Зулейха», широко распространённого в восточной и мировой литературе, в творчестве различных авторов и эпох. В частности, рассматриваются произведения*

«Юсуф и Зулейха» Abdurahmon Jomiy u «Юсуф и Зулейха» Alisher Navoiy, созданные на основе повествования о пророке Юсуфе в Qur'on. В ходе исследования анализируется художественная интерпретация таких идей, как любовь, терпение, верность и нравственная чистота, а также выявляются сходства и различия в системе образов и развитии сюжета. Кроме того, освещается своеобразие авторского стиля, влияние эпохи и эстетических взглядов на переосмысление данного сюжета. В результате сравнительного анализа делается вывод о том, что тема «Юсуф и Зулейха» служит важным художественным средством прославления человеческих добродетелей.

Ключевые слова: *Юсуф и Зулейха, сравнительный анализ, восточная литература, символ любви, терпение и верность, художественная интерпретация, система образов.*

Sharq xalqlari orasida qadimdan mashhur bo'lgan qissalardan biri "Yusuf va Zulayho"dir .Bu sayyor syujet ,"Tavrot","Injil" hamda islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni Karimda ham uchraydi.Sharq adabiyotining buyuk darg'alari Firdavsiy,Kisoiy, Abdurahmon Jomiy kabilar arab va fors tillarida ,Qul Ali, Shayyod Hamza, Nosuriddin Rabg'uziy,singari ijodkorlar esa Durbekka qadar turkiy tilda yozgan asarlarida mazkur qissaga murojaat etishgan.Bu asarlar orasida Durbekning "Yusuf va Zulayho" dostoni alohida ahmiyatga ega. Durbek o'sha paytda yuz bergan tarixiy voqelikni konkret masalalarda tasvir etgandan so'ng, dostonning asosiy qismi hikoya qilishga kirishadi.Dostonda tasvirlanayotgan asar qahramonlari faoliyati O'rta Osiyo shahar va qishloqlariga xos tabiat manzaralari, turmush hodisalari, xalq urf-odatlariga bilan chatishib ketadi. Yaqub bolalari o'rtasida tug'ilgan bir-birini ko'ra olmaslik kayfiyatlari uning oilasidagi aka-ukalar orasida tug'ilgan ziddiyat bilan to'qnashadi.Dostonda berilgan bu oilaviy konflikt Temur va uning o'g'il-nabiralari ham taalluqlidir.Chunki Temur o'lgach, uning xotinlari va ulardan tug'ilgan bolalar sulton taxtini egallashga uringan edilar. O'zaro qonli kurashlarning kelib chiqish sabablaridan biri shu edi.Bu urushlarning og'irligi mehnatkash xalq zimmasiga tushmasdan qolmasdi. Balx shahrining uch oy qamalda qolib ketishi bunga yorqin misoldir. Shuning uchun ham Durbek bosqinchilik urushlarini qoralaydi. U bunday urushlarga qarshi chiqqanligini ifodalovchi misralarni ochiq yozmasa ham dostonning boshlang'ich qismiga kiritilgan va yuqorida qayd qilingan Balx qamalini tasvirlovchi epizod shoir poeziyasini aniqlashda yetarli material bo'la oladi. Shoir keyingi boblarda dostonnig oxirigacha Yusuf taqdiri va unung hayotiga bo'lgan munosabatini turli bosqichlarda hikoya qiladi.Shoir o'z qahramoni Yusuf faoliyatini berishda tobora dunyoviy hayotga yaqinlashib boradi. Unda insoniy fazilat ustunlik darajasiga ko'tariladi.Yusufdagi insonga xos bo'lgan ijobiy fazilatlar uning donoligida,

xalqparvarligida, xushmuomalaligida, vatanparvarligida otasiga bo‘lgan farzandlik muhabbati kabilarda ochiq seziladi. Yusufdagi bu hislatlar xalq uchun qayg‘uruvchi, insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan kishilargagina xosdir

Dostonlarda har bir shoir o‘z davrining muhim voqealari, ahloqiy va falsafiy qarashlarini aks ettirishga intilganlar. Masalan Durbekning “Yusuf va Zulayho” dostonida shaharning qamal qilinishi, Yusuf obrazining talqini ham turlicha. Yusuf haqidagi ilk dostonlarda Yusuf va Zulayho ilohiy obraz markazida tasvirlansa keyinchalik Yusuf va Zulayho muhabbati dunyoviy talqin qilina boshlandi. Durbek va Abdurahmon Jomiy dostonlarida bosh qahramonlari Zulayhoni go‘zal qiz sifatida tasvirlaganlar. “Yusuf va Zulayho” dostoni an‘ana bo‘yicha Durbekka tegishli deb kelinadi. Ammo fransuz olimi E. Bolshe doston Navoiyniki degan qarashlarni ilgari suradi. Afg‘on olimi Juzjoniy Homidiy Balhiyga nisbat beradi. “Yusuf va Zulayho” dostoni haqidagi ilmiy tahlillar qo‘llanmaning kengaya borishi natijasida adabiyotchi va tarixchi olimlar o‘rtasida munozarali fikrlar ham yuzaga kela boshladi. Jumladan asrimiz boshida “Yusuf va Zulayho” dostonining ilk tadqiqotchisi fransiyalik Eduard Bloshe Parij Milliy kutubxonasida saqlanayotgan qo‘lyozmalari tavsifini berar ekan asarni Navoiy qalamiga mansub deb yozadi. Yusuf va Zulayho obraziga XX asrning yirik so‘z ustalari Nozim Hikmat va T. Mannlar ham murojaat qilganlar. T. Mann “Yusuf va uning akalari” asarini, Nozim Hikmat “Go‘zal Yusuf” asarini yaratdi. Asarning keng tarqalishi va shuhrat qozonishiga asosiy sabab uning mazmun mohiyatidagi muhabbat talqinidir. Muhabbat deganda faqat bandasiga emas balki, ollohga bo‘lgan muhabbat ham anglashiladi. Durbekning hayoti bilan bog‘liq ba‘zi ma‘lumotlar “Yusuf va Zulayho” dostonining muqaddimasida keltiriladi, xolos. “Yusuf va Zulayho” syujetining asosiy manbai Qur‘on bo‘lib, unda Yusuf payg‘ambarning hayoti, uning boshidan kechirgan sinovlari, sabri va oxir-oqibat haqiqatning g‘alabasi tasvirlanadi. Ushbu qissa Sharq adabiyotida insoniy fazilatlarni ulug‘lovchi muhim badiiy asos sifatida qabul qilingan.

Abdurahmon Jomiy tomonidan yaratilgan “Yusuf va Zulayho” dostoni tasavvufiy-falsafiy ruh bilan sug‘orilgan asardir. Unda Zulayho obrazi oddiy ishqiy qahramon emas, balki ma‘naviy kamolot sari intiluvchi inson timsoli sifatida tasvirlanadi. Yusuf esa go‘zallik, poklik va ilohiy nur ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Jomiy asarida ishq nafsiy istakdan ilohiy muhabbatga yetaklovchi kuch sifatida talqin qilinadi. Asarda sufiylik g‘oyalari, ruhiy poklanish va ma‘naviy yuksalish masalalari yetakchi o‘rinda turadi. Alisher Navoiy ijodidagi “Yusuf va Zulayho” esa turkiy adabiyot an‘analari asosida qayta ishlangan bo‘lib, u sodda va xalqchil uslubda yozilgan. Navoiy asarida obrazlar hayotga yaqinlashtirilgan, insoniy tuyg‘ular yanada aniqroq ifodalangan. Zulayho obrazi ichki kechinmalari, iztiroblari va sevgisi orqali chuqur ochib beriladi. Yusuf esa adolat, sabr va poklik timsoli sifatida

tasvirlanadi. Navoiy asarida asosiy e’tibor insonni komillikka yetaklash, axloqiy tarbiya va sabr-toqat g‘oyalariga qaratilgan. Jomiy va Navoiy asarlarini qiyoslaganda, avvalo ularning umumiy manbaga asoslanganligi ko‘zga tashlanadi. Har ikkala asarda ham asosiy g‘oya ishq, sabr, sadoqat va axloqiy poklikdir. Yusuf obrazi ikkala muallif ijodida ham ideal inson timsoli sifatida beriladi. Biroq farqli jihatlar ham mavjud. Jomiy asarida tasavvufiy-falsafiy yo‘nalish kuchli bo‘lib, ishq ilohiy darajaga ko‘tariladi. Navoiyda esa hayotiylik va didaktik maqsad ustunlik qiladi. Shuningdek, Jomiy uslubi murakkab va falsafiy bo‘lsa, Navoiy uslubi sodda va xalq tushunadigan darajada ifodalangan.

Sayyor syujet maqomida Sharq xalqlari adabiyotida “Yusuf va Zulayho” dostonining xilma-xil namunalari yaratildi. Sanab o‘tilgan sayyor voqealarning ayrimlaridan o‘nlab, hatto yuzlab asarlar yaratilgan. Agar Durbekning ijodidagi “Yusuf va Zulayho” dostoni haqida gap yuritilsa, “Yusuf va Zulayho”-Sharq xalqlari orasida mashhur va keng tarqalgan ishq qissasi deyiladi. Abdurahmon Jomiyning “Yusuf va Zulayho” dostonida ishqiy ilohiy masalalari yetakchilik qilsa, Durbekning qalamiga mansub “Yusuf va Zulayho” dostonida esa xaloskorlik, sabr-u matonat masalalari e’tiborga olinganligi ko‘rinadi. Bundan shu fikr kelib chiqadiki, har bir davr hamda ijodkorning o‘z “Yusuf va Zulayho”si bor. Yusuf va Zulayho mavzusi insoniyatning o‘lmas timsollaridan biridir. Asardagi ishq mavzusi zamirida Allohga bo‘lgan ilohiy sevgi birinchi o‘rinda turadi. Doston didaktik ko‘rinishdagi asar namunasidir.

Xulosa qilib aytganda, “Yusuf va Zulayho” syujeti Sharq adabiyotining eng muhim badiiy va ma’naviy manbalaridan biridir. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ijodidagi ushbu asarlar bir manbadan kelib chiqqan bo‘lsa-da, turli badiiy va g‘oyaviy talqinlarga ega. Jomiy asarida falsafiy-tasavvufiy ruh ustun bo‘lsa, Navoiy ijodida hayotiy va tarbiyaviy jihatlar yetakchi o‘rinni egallaydi. Har ikkala asar ham insoniy fazilatlarini ulug‘lash, ma’naviy kamolotga yetaklash va axloqiy poklikni targ‘ib qilishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.R.J.Vohidov, H.P.Eshonqulov. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jang‘armasi nashriyoti, Toshkent-2006-y. 160-166-bet

2.N.Mallayev, O‘zbek adabiyoti tarixi, birinchi kitob, “O‘qituvchi “ nashriyoti, Toshkent-1976-y. 270-bet

3. Abdurahmon Jomiy. Saylanma, Adabiyot va san’at. Toshkent-1971-y. 357-bet

4.w.w.w.pedagoglar.org.